

**BOLALAR FANTASTIK ADABIYOTI NAMUNALARINI TARJIMA QILISHDAGI  
LEKSIKOLOGIK VA ETIMOLOGIK MUAMMOLAR TAHLILI (LEV TOLSTOY ERTAKLARI  
MISOLIDA)**

<sup>1</sup>Muxtorxonova Ozoda Axror qizi

<sup>2</sup>Solijonov Juraali Kamoljonovich

<sup>1</sup>Termiz davlat universiteti Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati yo'nalishi talabasi

<sup>2</sup>Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6523166>

**ANNOTATSIYA:** Mazkur ilmiy maqoladan ko'zlangan maqsad badiiy ertaklardagi etimologik va leksikologik o'zgarishlarni, o'quvchi uni to'liq anglashi uchun tahlil va ma'lumotlarni keltirishdan iboratdir. Ushbu o'zgarishlar bo'lishi sababli, gapda semantik, morfologik, fonetik, leksikologik va yana bir qancha o'zgarishlar yuz bergan. Gapdagi bunday o'zgarishlarga esa ko'pincha, tarjima qilinayotgan tillar o'rtasidagidagi nomuqobillik sabab bo'ladi. Ana shu nomuqobillik yuqorida sanab o'tilgan ko'plab grammatik o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Ushbu maqola esa namuna sifatida ertaklarda uchraydigan o'zgarishlarni, etimologik va leksikologik tahlillarini ko'rsatib beradi.

**Kalit so'zlar:** badiiy ertak, leksikologik semantik, morfologik, fonetik, nomuqobillik, etimologik,

**ANALYSIS OF LEXICAL AND ETYMOLOGICAL PROBLEMS IN THE TRANSLATION OF  
FICTION (IN THE EXAMPLE OF LEO TOLSTOY'S FAIRY TALES)**

**ABSTRACT:** The purpose of this scientific article is to analyze and explain the etymological and lexical changes in fairy tales, so that the reader can understand them. Due to these changes, the sentence underwent semantic, morphological, phonetic, lexical and many other changes. Such changes in speech are often caused by inconsistencies between the languages being translated. This incompatibility that leads to many of the grammatical changes listed above. This article provides an etymological and lexical analysis of changes in fairy tales as an example.

**Keywords:** fiction, lexicology, semantics, morphology, phonetics, incompatibility, etymology.



## АНАЛИЗ ЛЕКСИКОЛОГИЧЕСКИХ И ЭТИМОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ ПЕРЕВОДА ХУДОЖЕСТВЕННЫХ СКАЗОК (НА ПРИМЕРЕ СКАЗОК ЛЬВА ТОЛСТОГО)

**АННОТАЦИЯ:** Целью данной научной статьи является предоставление анализа и информации об этимологических и лексических изменениях в художественной литературе, чтобы читатель мог ее полностью понять. Такие изменения в речи часто вызываются несоответствиями между переводимыми языками. Эта несовместимость приводит ко многим грамматическим изменениям, перечисленным выше. В данной статье на примере приведен этимологический и лексический анализ изменений, происходящих в сказках.

**Ключевые слова:** художественная литература, лексикология, семантика, морфология, фонетика, некомпетентность, этимология.

### KIRISH

Badiiy ertaklar muayyan muallifga ega, ammo folklor bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Badiiy ertaklar muallifning dunyoga bo'lgan qarashlari, g'oyalari va istaklarini aks ettiradi. Bunday ertaklar asosan xalq ertaklari syujetlari asosida quriladi. Badiiy ertaklar jahon adabiyoti, xususan o'zbek yozma adabiyotining katta qismini tashkil etadi. Bular orasida chet el ertaknavislardan Sharl Pero, aka-uka Grimlar, Hans Xristian Andersen, L.N.Tolstoy yozma ertaklarning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Ertak qanday bo'lishidan qat'iy nazar, uning maqsadi bolani umidsizlikka tushmaslik, o'zgalar fikrini hurmat qilish va doim harakatda bo'lishga undovchi hisoblanadi. Adabiy ertakning pedagogic qiymati shundaki, bolalar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kishilar qiyinchilikdan qutulganidan, ya'niki yaxshilik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular bundan keyin hayotda ham shunday bo'lishini istaydilar. Ertak o'quvchilar nutqini o'stirishda ham foydali hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek xalq ertaklari bilan badiiy ertaklar o'rtasida farq mavjud, bular 2ga bo'linadi. Birinchisi, adabiy ertaklar har doim yozib olinadi va uning shakli o'zgarmaydi, xalq ertaklarida esa qat'iy belgilangan matn mavjud emas; har bir ertakchi unga o'zi hohlaganicha biror nima qo'shishi mumkin. Ikkinchisi, badiiy ertak muallifning qarashlarini, xalq ertaklari esa butun xalqning g'oyalari va qadriyatlarini aks ettiradi. Huddi shunga, Lev Tolstoy ertaklarini misol keltirsak bo'ladi. Lev Tolstoy voqealarga boy tarjimai hoida u bolalarni o'qitish va tarbiyalash sohasida faol

ishlagan davr alohida ajralib turadi. Bu dehqon bolalari uchun 1871-yilda tashkil etilgan maktab davriga to'g'ri keladi. U hayotiy voqealariga asoslanib ertaklar yaratgan. Tolstoy ertaklarning mazmuni va ro'yhatini tahlil qilib, yozuvchi ularni o'ziga xos xususiyatlarini bilishni hisobga olgan holda yaratgan, degan xulosaga kelish mumkin.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Ertak – xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri, to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yoziladi. Ertaklar ko'plab jihatlariga ko'ra shartli ravishda, hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklar, hajviy ertaklarga bo'linadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ertaklarni tarjima qilishda ko'plab Grammatik o'zgarishlarga uchrashiga to'g'ri keladi. Chunki ertaklarni tarjima qilishda eng avvalo badiiylikka e'tibor berish kerak. Tarjima jarayonida semantik o'zgarishga uchrash bu eng qo'pol xato hisoblanadi, bunda ma'no o'zgarib ketishi mumkin.

Asarda yuz bergan leksikologik hamda etimologik o'zgarishlar tahlili:

Bu ertak o'ziga badiiy bo'yoqdorlikni ko'proq talab qilganligi uchun , ba'zi so'zlarni ma'nodoshini qo'llashga , kichik kichik 2ta yoki 3ta gaplarni bir biriga qo'shishga to'g'ri keldi. Va buning oqibatida gapda leksikologik , sintaktik , morfologik , grammatik o'zgarishlarni ko'rishingiz mumkin.

O'zgarishlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Birinchi gapda sintaktik o'zgarish bo'lgan ya'ni gapda o'zgarish. Bunda 2ta gap birlashtirilgan .
- "Slowly " ya'ni "sekin " so'zini gapning ma'nosiga moslashtirib "ehtiyotkorlik bilan" deb o'zgartirilgan.
- Yana bir gapda 2ta gapni birlashtirish uchun ammo bog'lovchisidan foydalanilgan , hikoyada keltirilmagan bo'lsa ham.
- "It seemed that the little girl could not hear her sister ." gapidagi kirish so'zni gapning oxiriga o'tkazib " Kichkina qizaloq opasini eshitmagan ko'rinadi" tarzida tarjima qilingan va gap sintaktik o'zgarishga uchragan.

- Ushbu ertakda morfologik o'zgarishdan ham bir necha marta foydalanilgan , ya'ni , otni olmoshga yoki olmoshni otga o'zgartirish . Misol uchun : "she " olmoshini " qizaloq " deb almashtirilgan.

- "The little girl " so'zini " qizaloq" deb tarjima qilinib leksikologik ya'ni so'zda o'zgarish yuz bergan.

Etimologik tahlil:

Mushroom – bu so'z 1570-yillardan buyon ishlatilib kelinadi. Fransuzcha "champignon" so'zidan olingan bo'lib, keyinchalik o'zgarishlarga uchrab shu holatga kelgan. Yana bu so'zni lotincha "campaneus" so'zi bilan ham bog'liqligi bor.

Little – bu so'z eski ingliz tilidagi "lytel" so'zidan kelib chiqqan. Keyinchalik o'zgarishlarga uchrab "little" ko'rinishiga kelgan.

Meanwhile – bu so'z 14-asr oxirlaridan boshlab ishlatila boshlangan. Eski ingliz tilidagi "mean" hamda "while" so'zlarining qo'shilishidan paydo bo'lgan.

Engine – ushbu so'z eski fransuz tilidagi "engine" so'zidan kelib chiqqan. Bu so'z urush paytida qo'llanila boshlangan.

Suddenly – bu so'z ingliz-fransuz "sodaine" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, keyinchalik german tilidagi "liko" so'zining o'zgarishlarga uchrashi oqibatida "ly" shakliga kelib sudden so'zi bilan qo'shilishi orqali paydo bo'lgan.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, fantastic, badiiy ertaklar bolalar uchun juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Ular ertaklar orqali ezgulikka ishonishni, doimo harakatda bo'lishni, ko'proq yaxshilik qilishni o'rganishadi. Bolalarni ertaklardagi o'yinchoq, hayvonlar harakati o'ziga jalb qiladi, shuni uchun ham ularda taqlid qilish hohishi paydo bo'ladi. Aynan shuning uchun ham ertaklarni bolalarga o'qib beryotganda uning mazmuniga e'tibor berish tavsiya qilinadi. Eng asosiysi ertak tarjima qilish ham o'ziga xos qiyinchilikka ega bo'lib, ertaklarni tarjima qilish asar tarjima qilishdan ikki barobar qiyin hisoblanadi. Sababi undagi badiiylikdir. Tarjima qilishda o'qish, tushunish uchun oson bo'lgan so'zlardan foydalanishga to'g'ri keladi, chunki agar tushunilishi qiyin bo'lsa unda bolalarga qiziq bo'lmaydi. Shuning uchun ham, ertak tarjima qilish mashaqqatli ish hisoblanadi.



### Adabiyotlar ro'yhati:

1. <https://www.etymonline.com>
2. <https://hozir.org>
3. <https://gigafox.ru>
4. Jo'ramurodova, Z., & Solijonov, J. (2022, April). JK ROULINGNING "BIDL QISSANAVIS ERTAKLARI" ("THE TALES OF BEEDLE THE BARD") ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI. In *МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ: "СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАДИГМЫ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ТРАДИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ II"* (Vol. 2, No. 18.03, pp. 554-560). <https://doi.org/10.47100/nuu.v2i18.03.115>
5. Qodirovna, A. Z., & Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING, GARRI POTTER VA AFSUNGARLAR TOSHI"ROMANIDAGI SEHRGARLAR OBRAZINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING LINGVO-PERSPEKTIV TAHLILI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(3), 176-180. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-3-176-180>
6. Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(1), 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>
7. Muxtorxonova Ozoda Axrorovna. (2022). MAZKUR MAQOLA A.TOMAS QALAMIGA MANSUB "QABRISTON BOLALARI"(CEMETERY BOYS) ASARINI TARJIMA QILISHDAGI ETIMOLOGIK VA LEKSIKOLOGIK MUAMMOLARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6492627>.
8. G'oyibnazarova, Sh. A. Solijonov, J.K (2022). INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMADA TRANSLITERATSIYA USULIDAN FOYDALANISH ("STIV JOBS" ASARI MISOLIDA). *Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies*, 2(4), 59-62. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-4-59-62>.